



STUDY OF UZBEK LANGUAGE'S PART OF SPEECH IN AFGHANISTAN

Omidullah Bayani¹

¹ Samarkand State University, Master student of Philology

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4711213>

ABSTRACT

ARTICLE INFO

Received: 15th April 2021

Accepted: 19th April 2021

Online: 21st April 2021

KEY WORDS

Afghanistan, grammar, textbooks, Uzbek language, part of speech, independent word groups, auxiliary word groups, particular word groups.

This article discuss the study of Uzbek grammar especially part of speech in Afghanistan, and how it is studied in school textbooks, university textbooks, and master's dissertations.

AFG'ONISTONDA O'ZBEK TILI SO'Z TURKUMLARINING

O'RGANILISHI

Omidullah Bayani¹

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-aprel 2021

Ma'qullandi: 19-aprel 2021

Chop etildi: 21-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

Afg'oniston, grammatika, darslik, o'zbek tili, so'z turkumlari, mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'z turkumlari, alohida so'z turkumlari.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Afg'onistonda o'zbek tili grammatikasi ayniqsa so'z turkumlarining o'rganilishi haqida so'z yuritilib, maktab darsliklaridan boshlab, universitet o'quv qo'llanmalari va magistrlik dissertatsiyalarda qanday o'rganilganligi yoritiladi.

Kirish. Afg'oniston Islom Respublikasining chog'dosh (hozirgi) tarixida o'zbek tilida yozish va tadqiq qilish, chamasi qirq uch yil bo'lmoqda, bu muddatda o'zbek tilidan ko'ra, o'zbek adabiyoti ayniqsa mumtoz adabiyotiga oid asarlar uzluksiz o'rganilib qayta chop etildi. Biroq o'zbek tili

bo'yicha asarlar juda kam nashr etilgan. Shunday bo'lsa-da, biz ushbu maqolada maktab darsliklaridan boshlab, bugungi kunga qadar nashr etilgan ilmiy kitob va dissertatsiyalarni ko'rib chiqib, qisman o'zbek tili grammatikasi asosan so'z turkumlarining



qanday o'rganilganligi haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

Asosiy qism. Afg'oniston maktablarida o'zbek tilida darsliklar 1978-yil (1357 h.) Ulug' Savr inqilobidan keyin, o'zbek bolalari o'z tillarida ta'lim olish huquqiga ega bo'lib, o'zbekcha maktablar ochildi. Shu yil jarayonida ta'lim va tarbiya vazirligining ta'lif va tarjima rayosati chorcho'basida o'zbek tili kafedrasini ochilib, maktab darsliklarini tayyorlash uchun amaliy ishlar boshlandi. Biroq o'zbek tili mutaxassislari bo'lmagani uchun, bolalar oltinchi sinfga yetganda ham darsliklar uchinchi-to'rtinchi sinfdan o'ta olmadi, shunday bo'lsa-da, ona tili darsligi 8-sinfgacha tayyorlangan. O'zbek xalqi farzandlarining ta'lim sohasidagi bunday taqdirsizligini ko'rib, bolalarini o'zbekcha maktablardan fors-dariy va pushtu tilidagi maktablarda ko'chirishga majbur bo'ldi.

1992 – 2004 (1371 – 1382 h.) yilga qadar Afg'oniston Islom Respublikasi va Tolibon davrida, ta'lim va tarbiya tizimi tubdan o'zgartirilib, o'zbek tilida ta'lim olish to'xtatilgan bo'lsa-da, biroq o'zbek tili kafedrasini butunlay chiqarib tashlanilmagan, faqat faoliyati sekinlashtirilgan [4, 2020, Bahoiy, Toshqin, o'zbek tili darslik kitoblari].

2004 yilda (1382 h.) Afg'oniston maorif (maktabgacha ta'lim) vazirligi chorcho'basida o'zbek tili kafedrasini qayta tiklandi, biroq bu marta o'zbekcha maktablar emas, balki o'zbeklar yashayotgan hududlarda o'zbek tili bitta fan sifatida darslik tuzildi.

Bugungi kunda o'zbek tili darsliklari 12-sinfgacha¹ tayyorlangan bo'lib, o'zbeklar yashayotgan hududlardagi maktablarda

¹ Afg'oniston maktablarida 12 yil dars o'qiladi. 1-sinfdan 6-sinfgacha boshlang'ich davr, 7-sinfdan 9-sinfgacha o'rta davr va 10-sinfdan 12-sinfgacha esa lisa (oliy) davrlardir.

“o'zbek tili darlik kitobi” nomi ostida o'zbek tili va adabiyoti o'rgatilmoqda.

Afg'oniston viloyatlarining 7 universitet va 10 dan ortiq muallim tarbiyalash (o'qituvchilar malakasini oshirish) institutlarida o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mavjud. Afsuski, oliy ta'lim bo'yicha rasmiy o'quv qo'llanmalar chop etilmagan. barcha universitet va institutlarda O'zbekistonda chop etilgan kitob va o'quv qo'llanmalar o'zbek kiril va lotin alifbolaridan arab alifbosiga o'girilib, darslik sifatida dars berilmoqda. Shuning uchun, biz so'z turkumlarining o'rganilishini maktab darsliklaridan boshlaymiz, va Zikrulloh Ishonchning “Hozirgi o'zbek tili” nomli o'zbek tili va grammatikasiga oid yagona chop etilgan asar va bir nechata Turkiyada ishlangan magistrlik dissertatsiyalarini tekshirib, qisman grammatika va asosan so'z turkumlari haqidagi bahslarni o'rganib chiqamiz, xolos.

Afg'oniston maktab darsliklarining 1-sinf o'zbek tili darslik kitobida o'zbek-arab alifbosi o'rgatiladi, ushbu darslikda o'zbek arab alifbosi 36 ta deb ko'rsatilgan bo'lib, har bir harfni alohida darslarsa turli misollar bilan o'rgatilgan. 2- sinfda tinish belgilari, so'z, gap, matn nima ekanligi o'rgatilgan. 3- sinfda kim va nima so'roq olmoshlari va gap va dark gaplari haqida to'xtalgan. 4- sinfda orfografiya nimaligi, gap, gap turlari, shakldosh (amonim), ma'nodosh (sinonim), qarama-qarshi (antonim) so'zlar, so'z turkumlari va mustaqil va yordamchi so'z turkumlari haqida bahs yuritiladi. Bundan keyin so'z turkumlari haqidagi ta'limot uzil-kesil takrorlanib kelaveradi. Ushbu sinfdan (4-sinf) so'z turkumlari haqidagi ta'limot boshlanib, so'z turkumlarini mustaqil so'zlar va yordamchi so'z turkumlarga bo'linib, mustaqil so'z turkumlari nechata ekanligi ham qaysilardan iborat ekanligi ham qayd etilmay,



yordamchi soʻz turkumlariga taʼrif berilib, oʻzbek tilida yordamchi soʻzlarning uch turi bor deb koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklamalar qayd etiladi.

Ushbu sinfning 32-darsda ot haqida, 34-darsda turdosh va atoqli otlar, 40-darsda otlarning yasalishi, sodda va qoʻshma otlar haqida soʻz yuritiladi. 5-sinfda feʼl, feʼl zamonlari, feʼl mayllari, feʼl nisbatlari, sifat, sifat darajalari, sifat turlari haqida soʻz yuritilgan. 6-sinf darsligida kelishik qoʻshimchalari, ravish va ravish turlari, olmosh va olmosh turlari haqida toʻxtalgan. 7-sinfda tagʻin soʻz turkumlari haqida soʻz yuritilib, mustaqil soʻz turkumlariga taʼrif berilgan, va mustaqil soʻz turkumlarini ot, sifat, son, olmosh, ravish va feʼldan iborat deb mustaqil soʻz turkumlarini 6 taga boʻlinib oʻrganilgan. Keyingi darsda yordamchi soʻz turkumlariga taʼrif berilib, uchga koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklamalarga boʻlinib oʻrgatiladi. Tagʻin atoqli otlar, turdosh otlar, aniq otlar, mavhum otlar, yakka otlar va jamlovchi otlar, kelishiklar, ot yasovchi qoʻshimchalar, juft va qisqartma otlar, sifat, son, tub, qoʻshma va juft sonlar, olmosh, koʻrsatish olmoshlari, soʻroq olmosh olmoshlari va oʻzlik olmoshlari haqida toʻxtalgan. 8-sinfda oʻtgan zamon, kelasi zamon, oʻtimsiz feʼl, feʼl nisbatlari, ravish, ravish darajalari, ravish turlari, yordamchi soʻzlardan koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklamalar oʻrganilib, alohida soʻzlardan faqat taqlid soʻzlar haqida soʻz yuritilib, qaysi guruhga tegishligi haqida soʻz yuritilmaydi.

Yuqorida koʻrganingizdek, maktab darsliklarida soʻz turkumlari 4-sinfdan 8-sinfgacha oʻrgatiladi. Soʻz turkumlarini 2 guruh mustaqil va yordamchi soʻz turkumlarga boʻlib, mustaqil soʻz turkumlariga ot, sifat, son, ravish, fel va olmosh; yordamchi soʻz turkumlariga koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklamalarga

boʻlinadi. Soʻggi darsda esa taqlid soʻzi haqida ham soʻz yuritiladi, lekin qaysi guruhga tegishligi aytilmaydi. Shunday qilib, soʻz turkumlarini 10 taga boʻlib oʻrganilgan. Undov va modal soʻzlar haqida soʻz yuritilmagan.

Maktab darsliklarining ilmiy yoʻsini va metodikasi haqida koʻp gapirib turmaymiz, agar bu haqda gapiraman desak, asl mavzudan chiqib ketishimiz ayon gap, yuqoridagi maʼlumotlardan shunday maʼlum boʻladiki, hech bir xos metoddan ish olinmagan, hattoki, grammatikaning ikki boʻlimini dars berish tartibi eʼtiborga olinmagan.

Afgʻonistonning 7 universitetida mavjud oʻzbek tili va adabiyoti kafedralarining rasmiy chop etilgan darslik va oʻquv qoʻllanmalari boʻlmaganligi sababli, biz oʻzbek tili grammatikasiga oid yagona chop etilgan asar hurmatli “Hozirgi oʻzbek tili” nomli asarini koʻrib chiqamiz.

Zikrulloh Ishonch (Ishonch toʻra)ning “Hozirgi oʻzbek tili” nomli asari oʻzbek tili grammatikasida oid birinchi chop etilgan kitob boʻlishi bilan eng oz vaqt ichida tilsevar va ona tillariga qiziqqanlar uchun muhim asar sifatida tan olindi. Asar yetti bobdab iborat boʻlib, 1-bobda tilshunoslik va uning boʻlimlari. 2- bobda fonetika, 3-bobda dialektologiya, 4- bobda leksikologiya, 5-bobda frazalologiya, 6-bobda grammatika, morfologiya va soʻnggi bobi (7-bobida), yordamchi soʻzlar oʻrganiladi.

Ushbu asar Afgʻoniston oʻzbek tilida birinchi chop boʻlgan asar boʻlsa-da, lekin asarda juda koʻp xatolarga yoʻl qoʻyilgan. Xatolari koʻpligi sababli Juzjon davlat universitetining ustozlari tanqidiy maqola yozishga sabab boʻlgan. Biz esa ushbu asarda soʻz turkumlari qanday va necha guruhga boʻlinib oʻrganganligi haqida soʻz yuritib, soʻz turkumlariga oid boblarga toʻxtalamiz.



Kitobda soʻz turkumlari, mustaqil soʻz turkumlari va yordamchi soʻz turkumlariga boʻlinib, 12 ta soʻz turkumlari oʻrganilgan. Mustaqil soʻz turkumlari 6-bobda oʻrganilib, ularga ot, sifat, feʼl, ravish, son va olmosh kabi soʻz turkumlari kiritilgan. 7-bobda yordamchi soʻzlar bahsi berilgan va yordamchi soʻzlar uchga (koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklamalarga) ajratilib, har biri haqida qisqa maʼlumotlar berilgan. Ushbu asarda alohida soʻzlar guruhini tashkil etuvchi undov, taqlid va modal soʻzlar ham yordamchi soʻzlar sirasiga qoʻshilib yuborilgan. Yordamchi soʻzlar va alohida soʻzlar guruhi orsidagi oʻxshash va farqli tomonlari tushuntirilmagan. Goʻyo koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, undov, taqlid, modal soʻzlar barchasi bir guruhga mansub soʻzlar deb tushuntirilgan.

Kitobning 150-betida atoqli otlarda shunday xato tarif berilgan: “shaxs yoki narsa, voqea-hodisaga atab qoʻyilgan nomlarga atoqli ot deyiladi” deb aytilgan. Shaxs nomini bildiruvchi soʻzlar atoqli ot sanaladi, lekin narsa nomi tosh, daraxat, daryo; voqea-hodisa nomi zilzila, qoʻzgʻolon kabi soʻzlar atoqli otlar emas, balki turdosh otlardir. Muallif ikkinchi taʼrifida, shunday yozadi: “yoki bir turdagi narsalardan birini ayirib koʻrsatgan otlar atoqli sanaladi” deb atoqli otlarga toʻgʻri taʼrif berib, tagʻin oʻsha taʼrifning idomasida “otlar shaxs, narsa, voqeaga maxsus atab qoʻyilgan nomlardir” deb xatoga yoʻl qoʻyadi. Muallif atoqli va turdosh otni chuqurroq tushuntirish maqsadida “turdosh otlar koʻproq umumiy, atoqli otlar esa turdoshlik xususiyatiga ega boʻladi” deya tagʻin xato qiladi. Bizningcha, umumiylik va turdoshlik ayni maʼnoni beradi [bu haqda toʻliq maʼlumot uchun, Nurulloh Oltoy, «“Hozirgi oʻzbek tili”ga tanqidiy bir qarash» nomli maqolasida qarang]. Shunga oʻxshash bir otning oʻzida juda koʻp xatolarga yoʻl

qoʻygan, hammasiga toʻxtalaman desak, asl mavzumizdan yiroqlashamiz. Shuning uchun mustaqil soʻz turkumlaridan yana biri sifatdagi xatoni koʻzdan kechirib, shu bilan cheklanamiz.

Kitobning sifat soʻz turkumi boʻlimida muallif sifat bilan ravishning vazifadoshligini tushuntirmoqchi boʻlib “...ravish ham belgi ifodalaydi. Biroq ularning farqi shundaki, sifat narsa va voqea-hodisaning belgisini, ravish boʻlsa, harkatning belgisini bildiradi. Uzun daraxt (sifat), oqsab yurmoq esa (ravish)dir.” deyilgan. Misoldagi “oqsab yurmoq” na sifat va na ham ravish, balki feʼlning sifatga mos keladigan shaklidirki, sifatdosh atamasi bilan nomlanadi. Tagʻin kitobning 173-betida otlashgan sifatlar sirasida “goʻzallik oʻtkinchi narsadir” deb misolda goʻzallik soʻzini otlashgan sifat deya tushuntirish ham xato. Chunki bu soʻzga ot yasovchi -lik qoshimchasi qoʻshilib ot yasalgan. Ravish soʻz turkumi haqidagi maʼlumotlarning keyingi betlarida ravish atamasi oʻrnida holat va holatda degan soʻz qoʻllaniladi. Yuqoridagi maʼlumotlarni koʻzdan kechirgan holda, bu barchamizga ayon boʻladiki, xatolar juda koʻp, biz mavzudan chetga chiqmasligimiz uchun soʻzimizni yakunlaymiz. ishimizning soʻngi materiali Sayid Barmak Daravgarning “Afganistan oʻzbek turkchasi grameri” (“Afgʻoniston oʻzbek tilining grammatikasi”) nomli dissertatsiyasini koʻzdan kechiramiz.

Sayid Barmak Daravgarning “Afganistan oʻzbek turkchasi grameri” (“Afgʻoniston oʻzbek tilining grammatikasi”) nomli dissertatsiyasi kirish va 6 bobdan iborat boʻlgan. Kirish qismida Afgʻonistonda yashayotgan turkiy qavmlar jumladan, oʻzbeklar haqida maʼlumot berilib, 1-bobda tilshunoslik va uning boʻlimlari, 2-bobda til haqida tushuncha, 3-bobda fonetika, 4-bobda dialektologiya, 5-bobda leksikologiya, 6-



bobda morfologiya o'rganilgan. Biz esa uning morfologiya o'rganilgan bobini ko'z kechirib, so'z turkumlari qanday o'rganganligi haqida ma'lumot beramiz.

Dissertatsiyaning asosiy qismini tashkil qilgan oltinchi bobida morfologiya o'rganilgan, va so'z turkumlari esa 78 – 132-betlarda o'rganilgan bo'lib, ushbu asarda so'z turkumlari 3 guruh mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'z turkumlari va undov, taqlid, mo'dal so'zlarga bo'linib o'rganilgan. Mustaqil so'z turkumlar sirasidan ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish o'rin olgan. Yordamchi so'z turkumlar sirasidan esa ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar o'rin olgan. Undov, taqlid va mo'dal so'zlarni esa shu unvon bilan atab, izoh berar paytda alohida so'z turkumi ekanligi qayd qilingan.

So'z turkumlarining tasniflanishi unvonining kiritma qismida “qo'shma so'zlar” degan kichik unvon sig'dirilib, ot turkumida o'rganilayotgan qo'shma va juft so'zlar masalan, belbog', aka-uka, qayg'u-alam kabi so'zlarni keltirib, so'z turkumlarining tasnifi masalasida daxldor bo'lmagan mavzu haqida bahs yuriltilgan. Biznincha, so'z tasniflash masalasida uch xususiyat ya'ni leksik-semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlar haqida so'z yuritib, uch guruhga bo'lingan so'z turkumlari haqida to'xtalsa edi, juda ma'qul bo'lardi. Harchand muallif so'z turkumlari tasniflanishining uch

xususiyatini aytmasa-da, “qo'shma so'zlar” unvonidan keyin yordamchi so'zlar haqida hamda undan keyingi unvonda undov, taqlid va modal haqida so'z yuritadi. Bu yerda mustaqil so'z turkumlari haqida so'z yuritilmaydi.

Xulosa. Yuqoridagi asarlarda ko'rganingizcha, biz tekshirgan asarlar Afg'onistonda o'zbek tili bo'yicha ishlangan darslik, kitob va dissertatsiyalar o'zbek tili so'z turkumlarini yaxshi tadqiq etolmagan, hattoki, O'zbekiston olimlarining o'rgangan faktlarini ham to'g'ri tushunolmay, xatolarga yo'l qo'ygan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, biz Afg'onistonda so'z turkumlarini o'rganib chiqishimiz paytida shunday natijaga keldikki, o'zbek tilinso'z turkumlari haqida yetarlicha tadqiq etilmagan. Hozorga qadar o'zbek tilida so'z turkumlari haqidagi ilmiy nazaryalar O'zbekiston olimlarining qarashlariga tayangan holda o'rganilib kelindi, bu sohada Afg'oniston olimlarining yangi qarashlari mavjud emas desak ham bo'laveradi. Bizningcha, bularning barchasi matn bilan ishlanmasligi tufayli yuz bergan. Biz esa so'z turkumlarini o'rganishda, Afg'oiston o'zbek tilidagi materillarda tayangan holda, O'zbekiston olimlarining bu sohadagi ilmiy qarashlaridan foydalanib, yangi uslubda (matn asosida tahlil qilish uslubda) so'z turkumlarini o'rganib chiqishga bel bog'ladik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Afg'oniston o'zbek tili maktab darsliklari (1 – 8-sinflar), M.H. Yorqin, Burhoniddin Nomiq, G'ulom Saxiy Vakilzoda va boshqa., Kobul, 2017 (1396 h.).
2. Daravgar, Sayid Barmak, “Afganistan o'zbek turkchasi grameri” magistrlik dissertatsiyasi, Erzurum, 2016.
3. Ishonch, Zikrulloh, Hozigi o'zbek tili, Kobul, Nigorxon matbu'asi, 2014.



4. Unutilmas (maqolalar va she‘rlar), o‘zbek va turkman tillari rasmiy maqomining o‘n yeti yilligini nishonlash komissiyasi ilmiy qo‘mitasi nashri, 2020.
5. Yorqin, Muhammad Halim, “افغانستان اوزبېك تارىخى از بىر دىگه ايدى” (“Afg‘oniston o‘zbeklarining tarixdan yaproqlar”), Mazori Sharif, Mirzo Ulug‘bek nashryoti, 2009.
6. 29-mizon o‘zbek tili milliy kuni (maqolalar va she‘lar to‘plami), 29-mizon o‘zbek tili milliy kuni komissiyasi ilmiy qo‘mitasi nashri, Kobul, 2020.